

# “O‘ZBEKISTON STATISTIKA AXBOROTNOMASI”

## ILMIY ELEKTRON JURNALI

2023  
4 (17)-SON

statmirror.uz

UO‘K 336.763

### ISLOM FOND INDEKSLARINING AN’ANAVIY FOND INDEKSLARI BILAN TASHQI TA’SIR OMILLAR BO’YICHA QIYOSIY TAHLLILI

Abrorov Sirojiddin

“O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi sektor mudiri, PhD  
e-mail: [sirojiddin\\_2463@umail.uz](mailto:sirojiddin_2463@umail.uz)

**ANNOTATSIYA.** Maqolada so’nggi yillarda qiziqish tobora ortib borayotgan islam kapital bozoriga oid tadqiqot natijalari aks ettirilgan. Unda islam kapital bozori instrumetnlarining tashqi shok omillarga bardoshlilik darajasi an’anaviysiga nisbatan taqqoslab o’rganilgan. Hills baholash va OLS log-log regressiya metodlaridan foydalanib amalga oshirilgan tahlillar natijasi muallif tomonidan muhim xulosalar olingan. Maqola mazkur mavzuga oid ilmiy izlanishlar ko’lamini boyitishga xizmat qiladi deb o’ylaymiz.

**Kalit so‘zlar:** fond indekslari, islam moliyasi, islam kapital bozori, Hills baholash, OLS log-log regressiya, DJIA, FTSE, S&P500, JCI, JII.

**АННОТАЦИЯ.** В статье отражены результаты исследования исламского рынка капитала, которое становится все более популярным в последние годы. В ней рассматривается степень прочности инструментов исламского рынка капитала к внешним шоковым факторам по сравнению с традиционными. Автор сделал важные выводы в результате анализа, проведенного с использованием методов оценки Хиллса и OLS log-log регрессии. Мы думаем, что статья послужит пополнению объема научных исследований по данной теме.

**Ключевые слова:** фондовые индексы, исламские финансы, исламский рынок капитала, оценка Хиллса, OLS log-log регрессия, DJIA, FTSE, S&P500, JCI, JII.

**ABSTRACT.** The article reflects the results of a study of the Islamic capital market, which has become increasingly popular in recent years. It examines the degree of robustness of the instruments of the Islamic capital market to external shock factors in comparison with traditional ones. The author drew important conclusions as a result of an analysis conducted using the Hills estimation and OLS log-log regression methods. We think that the article will serve to replenish the volume of scientific research on this topic.

**Key words:** stock indices, Islamic finance, Islamic capital market, Hills estimator, OLS log-log regression, DJIA, FTSE, S&P500, JCI, JII.

## KIRISH

Tadqiqot ob'ekti hisoblangan islom kapital bozori jahon kapital bozorida tobora o'z o'rnini kengaytirib bormoqda. Buning bir qancha omillari mavjud bo'lib eng muhimlari sifatida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

jahon muslimmon aholisining o'sib borishi. Aholining bu o'sishi shariatga mos keladigan moliyaviy vositalarni afzal ko'radigan potentsial investorlar sonining ko'payishiga olib keladi. Islom moliyasi tamoyillari muslimmonlarga riboviy moliyaviy instrumetnlar va axloqsiz iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanishni taqiqlaydi. Natijada muslimmon aholisi ko'payishi bilan islom moliyasi tamoyillariga mos keladigan moliyaviy mahsulotlarga talab ham ortib bormoqda;

islom moliyasining globallashuvi. Malayziya va Birlashgan Arab Amirliklari kabi davlatlar islom moliyasi markazlariga aylanib, islom moliyasi industriyasi rivojlanishi uchun qulay muhit yaratib kelmoqda. Ular transchegaraviy investitsiyalarni rag'batlantirish orqali ichki va xalqaro sarmoyadorlarga xizmat ko'rsatadigan keng qamrovli me'yoriy-huquqiy bazani yaratgan. Shuningdek xalqaro miqyosda islom kapital bozori instrumetnlarining chiqarilishi barcha turdag'i emitentlar ayniqsa davlat tomonidan ijtimoiy loyihalarga resurs jalg qilishga ko'plab imkoniyatlар eshigini ochmoqda;

islom kapital bozori instrumetnlari portfeli diversifikatsiya qilish unsuri sifatida qarash. Moliya institutlari va investitsiya kompaniyalari shariatga mos keladigan yangi va murakkab moliyaviy mahsulotlarni yaratish uchun doimiy ravishda innovatsiyalarni amalga oshirmoqdalar. Innovatsion islom moliyasi mahsulotlar ko'pincha xatarlarni taqsimlash mexanizmlarini o'z ichiga oladi. Masalan, foyda va zararlarni taqsimlash to'g'risidagi bitimlar, tovarlarga asoslangan moliyalashtirish va aksiyalarga asoslangan investitsiyalar risklarni boshqarishning muqobil strategiyalarini taklif qiladi.

Butun dunyo bo'ylab islom kapitali bozorining kengayishi demografik siljishlar, qulay tartibga solish muhiti, moliyaviy innovatsiyalar, sukuk bozorining o'sishi va islom moliyasini axloqiy va barqaror investitsiyalar bilan muvofiqlashtirish kabi omillar bilan izohlanishi mumkin. Ushbu omillar birgalikda islom moliyalashtirish tamoyillarini global moliya tizimiga kengroq integratsiya qilishga yordam beradi.

Islom kapital bozori mamlakat iqtisodiyoti rivojiga ijobiy ta'siri, inqirozlarga bardoshligi va samaradorligi yuqoriligi borasida ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Kapital bozori instrumetnlari ko'rsatkichlari nihoyatda sezgir va tez o'zgaruvchan bo'lib, bu borada islom kapital bozorining holatini o'rghanish zarurati yuzaga keldi. Shunga ko'ra islom kapital bozori va ananaviy kapital bozorining tashqi shok omillarga bardoshlilik darajasini aniqlash orqali jahon ilmiy hamjamiyatida avval olib borilgan tadqiqotlarni boyitishga harakat qildik. Bizning gipotezamizga ko'ra islom kapital borozori aktivlarga asoslanishi, ribo, g'arar, maysir unsurlaridan holi bo'lishi va axloqiy normalarga tayangan iqtisodiy faoliyatdan tarkib topishi singari omillar hisobiga an'anaviy kapital bozoriga

nisbatan inqirozlarga va tashqi shok omillariga bardoshli hisoblanadi. Ikkala tizimni ham bozor holatini namoyish etish uchun eng maqbul o‘zgaruvchi sifatida fond indekslari hisoblanadi.

## **MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI**

Nafis Alam boshchiligidagi tadqiqotga ko’ra, Islom sanoat indekslari so’nggi o’n yil ichida samaradorlik tendentsiyasini ko’rsatmoqda[1]. Islom indeksi jozibali va barqaror bo’lib, zaif shakldagi samarali bozor gipotezasiga mos kelmoqda. 18 yillik davrni ichiga olgan tadqiqot 10 ta an'anaviy va islom sanoat global indekslarini qiyosiy tahlil qilish orqali ushbu sohada yangi xulosalarni keltirgan. Tahlil shuni ko’rsatadiki, qisqa davrda samaradorlik namoyon bo’ladi.

“Umumiy shoklar, umumiy uzatish mexanizmlari va Dow Jones Islom fond bozori indekslari hamda global xavf omillari o’rtasidagi vaqtli o‘zgaruvchan munosabatlari” maqolasida[2], Xedi Xaddad boshchiligidagi Sfaks universiteti guruhi AQSh daromad egri komponentlari o’rtasidagi nojo’ya ta’sirlarni, shuningdek, o’nta daromadlilik o‘zgaruvchanlikning ta’sirini ko’rib chiqqan. Uchta yirik rivojlanayotgan mamlakatlarda valyuta bozorlari va Islom fond bozorlari o’rtasidagi o‘zgaruvchanlikning ta’sirini o’rganishgan. 2007-2009 yillardagi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozdan keyin barqarorlik va iqtisodiy o’sishni ta’minalash uchun muqobil moliyaviy tizim sifatida islom moliyasiga qiziqish sezilarli darajada ortdi. Tadqiqotchilar 14.04.2003 va 28.11.2018 yillar oralig’ida Dow Jones Islom bozorining 7 ta indeksining qisqa va uzoq muddatlardagi o’zaro bog’liqlik darajasini o’rganishgan. Natijalar shuni ko’rsatadiki, 7 ta DJIMni beshta umumiy tendensiya va oltita umumiy siklga ajraladi.

Afis Shayk islom fond indekslari va COVID-19 pandemiyasini o’zaro bog’ligini tadqiq qilgan[3]. COVID-19 pandemiyasidan kelib chiqqan holda, ular pandemiya va epidemiyalar uchun noaniqlik indeksini o’z ichiga olgan qimmatli qog’ozlar rentabelligining bir faktorli prognoz modelini yaratdilar. Shayk Islomiy aksiyalardan xedjlash uchun foydalanish mumkinligi bo’yicha ilmiy xulosalarini keltirgan. An'anaviy aksiyalar esa nisbatan zaif deb hisoblagan.

Bundan tashqari muallifning ham tadqiqot obyekti bo’yicha va sohaga oid bir qancha ilmiy maqolalar nashr etilgan.

## **STATISTIK MA’LUMOTLAR SHARHI**

Kapital bozorlarini o‘zaro qiyosiy tahlil qilish uchun yirik hisoblangan 3 ta global fond indekslarini va bitta mamlakat darajadagi fond indeksi tanlab olindi. Qiyosiy tahlil mantiqan muvofiq bo‘lish uchun an'anaviy fond indeksi bilan uning islom fond indeksi taqqoslandi. Tadqiqot uchun indekslarning 10 yillik davrnining kunlik yopilish narxlari olingan (1-jadval).


Tadqiqot uchun tanlangan fond bozori indekslari o‘rganilayotgan davrda ayrim keskin tebranishlar bilan birga umumiy o’sish tendensiyasini namoyish etgan (1-2-rasmlar). Diagrammalardan ko‘rish mumkinki, 2015-yil iyundan 2016-yil iyungacha fond bozorlarda tushish kuzatilgan. Bunga 2015-yil iyun-avgust oylarida Xitoy SSE kompozit indeksining 43 foizga tushishi va yuan devalvatsiyasi bosh omil bo’lgan. Xitoy YaIM o’sish sur’atining to‘xtashi, neft narxining

pasayishi, Gretsya defoltidan keyin investorlar o‘z aksiyalarini sota boshlashgan. Brexit referendumi ham aynan shu davrlarga to‘g‘ri keladi. 2020-yil COVID-19 ning ta’siri birinchi yarim yillikda fond bozori indekslarning qulashida namoyon bo‘lgan. 2022-yil davomida AQSh dollarining yuqori darajadagi inlatsiyasiyasi jahon kapital bozorida o‘z aksini ko‘rsatmay qo‘ymadi. Mazkur pasayish tanlangan davrdagi uchinchi shok omil deya tavsiflasa bo‘ladi.


### 1-jadval

#### Ayrin an'anaviy va islom fond indekslari ma'lumoti[17]


T/r	Indeks nomi	Indeks belgisi	Tanlangan davr	Manbasi
<i>An'anaviy fond indekslari</i>				
1.	Dow Jones Industrial Average Index	DJIA	31.01.2013-08.02.2023	<a href="http://www.spglobal.com">www.spglobal.com</a>
2.	Financial Times Stock Exchange All World Index	FTSE	14.10.2013-09.02.2023	<a href="http://www.investing.com">www.investing.com</a>
3.	Standard and Poor's 500 Index	SP500	31.01.2013-08.02.2023	<a href="http://www.spglobal.com">www.spglobal.com</a>
4.	Jakarta fond birjasi kompozit indeksi	JCI	02.01.2013-09.02.2023	<a href="http://www.investing.com">www.investing.com</a>
<i>Islom fond indekslari</i>				
5.	Dow Jones Islom bozori jahon indeksi	DJIslm	31.01.2013-08.02.2023	<a href="http://www.spglobal.com">www.spglobal.com</a>
6.	Financial Times fond birjasining shariat umumiy jahon indeksi	FTSEIslm	14.10.2013-09.02.2023	<a href="http://www.investing.com">www.investing.com</a>
7.	Standard and Poor's shariat indeksi 500	SP500Islm	31.01.2013-08.02.2023	<a href="http://www.spglobal.com">www.spglobal.com</a>
8.	Jakarta Islom indeksi	JII	02.01.2013-09.02.2023	<a href="http://www.investing.com">www.investing.com</a>




1-rasm. An'anaviy fond indekslarining narx dinamikasi[15;16]



**2-rasm. Islom fond indekslarining narx dinamikasi[15;16]**



**3-rasm. An'anaviy fond indekslarining nisbiy o'zgarish dinamikasi (foizda) [17]**



**4-rasm. Islom fond indekslarining nisbiy o'zgarish dinamikasi (foizda)[17]**

3-4-rasmlarda keltirilgan volatillik darajasi yuqorida keltirilgan tashqi ta'sir omillarini yanada aniqroq namoyon qiladi. Ular orasida COVID-19 pandemiyasining ta'sir juda sezilarli darajada bo'lganligi yaqqol ajralib turganligini kuzatish mumkin.

### TADQIQOT METDOLOGIYASI

Tasodifiy miqdorlarning katta o'zgarishlar potensiali ular taqsimotlari qoldiqlarining ehtimollik massasi orqali xarakterlanadi. Og'ir vaznli qoldiqqa ega risk, rentabellik yoki fond indekslarini o'z ichiga olgan modellarda foiz o'zgaruvchisi  $r$  darajali qoldiqli taqsimotga ega deb tahmin qilinadi, ya'ni:

$$P(r > x) \sim \frac{C_1}{x^{\xi_1}} \quad (1)$$

$$P(r < -x) \sim \frac{C_2}{x^{\xi_2}} \quad (2)$$

Bu yerda  $\xi_1, \xi_2 > 0$ ,  $C_1, C_2 > 0$  va  $x \rightarrow +\infty$ , agar  $\xi = \min(\xi_1, \xi_2)$  bo'lsa

$$P(|r| > x) \sim \frac{C}{x^\xi} \quad (3)$$

Bu yerda  $C > 0$ ,  $x \rightarrow +\infty$  (tadqiqotimiz davomida hozir va keyinchalik  $x \rightarrow +\infty$  da  $f(x) \sim g(x)$  ifoda  $\lim_{x \rightarrow +\infty} \frac{f(x)}{g(x)} = 1$  munosabatini bildiradi). 3, 1 va 2 munosabatlardagi  $\xi, \xi_1$  va  $\xi_2$  parametrler mos ravishda  $r$  tasodifiy miqdor taqsimotining **qoldiq qiymat, musbat qoldiq qiymat va manfiy qoldiq qiymat ko'rsatkichlari** deb tushuniladi. 1–3 munosabatlardagi ko'rsatkichlar darajali taqsimotning qoldig'ini nolga yaqinlashish tezligini xarakterlaydi. Qoldiqning

katta ehtimollik massasiga qoldiq qiymat ko'rsatkichining kichik qiymatlari mos keladi va aksincha. Bundan kelib chiqadiki,  $\xi$  ning kichik qiymatlariga tasodifiy miqdor realizatsiyasining katta qiymatlari mos keladi.

1–3 munosabatlar kichik qoldiq ehtimollik darajasiga mos keluvchi  $r$  tasodifiy miqdor kvantillari, yo'qotishlarning ortish ehtimolligi, risk o'lchovi (VaR) va kutilayotgan defitsitni aniqlash imkonini beradi. Bozorlarning qoldiq qiymat ko'rsatkichlari orasidagi farqlar ularning risklari orasidagi farqni baholash imkonini beradi. Og'ir qoldiqlilik xossasi risk menejerlari, moliyani tartibga soluvchilar, moliyaviy analitiklar va fond indekslari bilan ishlovchi boshqa bozor ishtirokchilari uchun muhim ko'rsatkich hisoblanadi.

$\xi$  qoldiq qiymat ko'rsatkichi  $r$  tasodifiy miqdorning chekli momentlarining maksimal tartibini xarakterlaydi.

$r$  tasodifiy miqdorning absolyut momenti faqat va faqat  $\xi = \min(\xi_1, \xi_2)$  dan kichik bo'lganda chekli bo'ladi, ya'ni agar  $p < \xi$  bo'lsa  $E|r|^p < \infty$  bo'ladi, agar  $p \geq \xi$  bo'lsa  $E|r|^p = \infty$  bo'ladi. 1–3 shartlarni qanoatlantiruvchi  $r$  tasodifiy miqdor ikkinchi tartibli chekli momentga (boshqacha aytganda chekli dispersiyaga) ega bo'lishi uchun  $\xi > 2$  shart qanoatlantirilishi kerak. Birinchi tartibli absolyut moment (matematik kutilma) chekli bo'lishi uchun  $\xi > 1$  kerak.

1-munosabatni qanoatlantiruvchi tasodifiy miqdorlarga turg'un, Student-t, Singh-Maddala oilasi va Pareto taqsimotlari misol bo'ladi. Bu haqida quyidagi maqolalarda batafsil Kovel va Flakeyr[4], Davidson[5] hamda Ibragimov[14] muallifligidagi maqolalarda tanishib chiqish mumkin. Shuningdek, og'ir qoldiqli  $\xi$  taqsimot qoldiq qiymat ko'rsatkichga oid bir qancha tadqiqotlar, xususan, Embrexts[7] va Beirlant[8] tomonidan izlanishlar o'tkazilgan. Ular orasida Hills baholash va OLS log-log regressiya medellaridan keng foydalaniladi.

Aytaylik,  $r_1, r_2, \dots, r_N$  3-munosabatni qanoatlantiruvchi tanlanma realizatsiyasi bo'lsin.  $n < N$  uchun quyidagi tartiblangan statistikani qaraymiz:

$$|r|_{(1)} \geq |r|_{(2)} \geq \dots \geq |r|_{(n)} \quad (4)$$

Bunda tanlanma absolyut qiymat bo'yicha kamayish tartibida tartiblab chiqilgan.  $\xi$  uchun Hill metodining bahosi quyidagicha bo'ladi:

$$\hat{\xi}_{Hills} = \frac{n}{\sum_{t=1}^n (\log|r|_{(t)} - \log|r|_{(n)})} \quad (5)$$

Bu yerda

$\hat{\xi}_{Hills}$  – Hills baholash metodi bo'yicha qoldiq qiymat ko'rsatkichi

$n$  – tanlanmadan ajratib olingan qismdagi kuzatuvarlar soni  
Hill bahosining standart xatoligi quyidagicha hisoblanadi:

$$s.e._{Hill} = \frac{1}{\sqrt{n}} \hat{\xi}_{Hill} \quad (6)$$

$\xi$  ning 95 foizlik ishonch interval bahosi Hill metodi bo'yicha quyidagicha aniqlanadi:

$$\left( \hat{\xi}_{Hill} - \frac{1,96}{\sqrt{n}} \hat{\xi}_{Hill}, \hat{\xi}_{Hill} + \frac{1,96}{\sqrt{n}} \hat{\xi}_{Hill} \right) \quad (7)$$

Bir qator tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Hill usuli orqali qoldiq qiymat ko'rsatkichi bahosi bog'liq hamda kichik hajmdagi tanlanmalar uchun xulosa qilishda kamchiliklar yuzaga keladi[7]. Bunga asoslanib, bir nechta tadqiqotlar qoldiq qiymat ko'rsatkichini baholashning muqobil yondashuvlariga qaratilgan. Masalan Huisman[9] boshchiligidagi tadqiqotchilar jamoasi kuzatuvlar soni 1000 tadan kam bo'lган tanlanma uchun Hill metodi bahosiga muqobil metod taklif qilgan. Mazkur tadqiqotchilar qoldiq qiymat ko'rsatkichlarini baholashda murakkab nochiziqli metodlarni ilgari surgan.

Ko'plab murakkab metodlar mavjudligiga qaramay  $\xi$  uchun OLS log-log rank-size regressiya usuli haligacha ommalashgan bo'lib qolmoqda.  $\gamma = 0$  uchun:

$$\ln(t - \gamma) = a - b \ln|r|_{(t)} \quad (8)$$

Bu yerda

$t$  – vaqt (kuzatuv nuqtasining tartib raqami)

$a$  va  $b$  – noma'lum parametrler

Biz uchun kerakli parametr  $b$  bo'lib, u OLS log-log rank-size regressiya metodi bo'yicha qoldiq qiymat bahosini ifodalaydi.

Xuddi shu formula asosida 1 va 2 monosabatlardagi  $\xi_1$  va  $\xi_2$  larni musbat va manfiy tanlanmalar  $r_t$  orqali baholanadi. Bu OLS metodidan keng foydalanishining asosiy sababi uning soddaligi va ishonchliligidir. Mazkur 8-formulada  $\gamma = 0$  bo'lishi Levy[10;11] va Helpman[12] izlanishlari bilan bog'liq.

8-formuladagi OLS log-log rank-size regressiya modeli asosida qoldiq qiymat ko'rsatkichlarinini baholash jarayonida  $\gamma = 0$  bo'lishi faqatgina kichik tanlanmalarda qanoatlantiriladi. Gabaiks va Ibragimov 2011-yilda nashr qilingan maqolalarida[13]  $\gamma = 1/2$  bo'lishini taklif etishadi. Shunda model bo'yicha formula quyidagicha ko'rinishga keladi:

$$\ln\left(t - \frac{1}{2}\right) = a - b \ln|r|_{(t)} \quad (9)$$

OLS log-log rank-size regressiya bahosining standart xatoligi quyidagicha hisoblanadi:

$$s.e._{RS} = \sqrt{\frac{2}{n}} \hat{\xi}_{RS} \quad (10)$$

$\xi$  ning 95 foizlik ishonch interval bahosi OLS log-log rank-size regressiya metodi bo'yicha quyidagicha aniqlanadi:

$$\left( \hat{\xi}_{RS} - 1,96 \cdot \sqrt{\frac{2}{n}} \hat{\xi}_{RS}, \hat{\xi}_{RS} + 1,96 \cdot \sqrt{\frac{2}{n}} \hat{\xi}_{RS} \right) \quad (11)$$

Biz tadqiqotlarimizda xulosalarni shakllantirishda OLS log-log rank-size regressiya modeliga ustunlik berdik. Tanlangan metodlar haqida Marat Ibragimov


va boshqalar tomonidan 2013-yilda chop etilgan “Emerging markets and heavy tails” ilmiy ishida bat afsil tanishish mumkin[14].


## TAHLIL VA NATIJALAR

Tanlangan metod bo‘yicha tahlillarni amalga oshirishdan avval ma’lumotlarning statistik ahamiyatini tekshirish maqsadida barcha fond indekslarining tanlanmasidan ajratib olingan turli qismlarida qoldiq qiymat bahosi hisoblandi. Unda avval indekslarning nisbiy o‘zgarishi absolyut qiymatlarga keltirilib kattadan kichikka qarab tartiblandi. Qayta tartiblangan tanlanmaning eng yuqori 2,5 foizdan 15 foizgacha qismi ajratib olindi. Ajratib olingan qismalarning 95 foiz ishonch intervalida yuqori va quyi chegaralari bilan birgalikda qoldiq qiymat bahosi aniqlandi (5-6-rasmlar).


5-6-rasmlarda keltirilgan natijalardan ko‘rinadiki, barcha fond indekslarida ajratib olingan qismlarining 95 foiz ishonch intervallarida qoldiq qiymat bahosining yuqori va quyi chegaralari orasidagi intervallar o‘zidan avvalgi va keyingi qism intervallari bilan tutashlikka ega. Hech bir fond indekslarida qismlari mazkur intervallari umumiylukka ega bo‘lmasdan keskin siljish holati kuzatilmaydi. Bu esa tanlanmaning statistik ahamiyatli ekanligini anglatadi.


Ma’lumotlarning statistik ahamiyatli ekanligi tasdiqlangandan so‘ng biz fond indekslarini uning tanlanmasidan ajratib olingan 5% va 10 % qismlarida qoldiq qiymat bahosi va 95 foiz ishonch intervallarini o‘zaro qiyosiy tahlil qildik.





**5-rasm. Anan'anaviy fond indekslarining tanlanmasidan ajratib olingan turli qismlarida qoldiq qiymat bahosi va 95 foiz ishonch intervallari[17]**





**6-rasm. Islom fond indekslarining tanlanmasidan ajratib olingan turli qismlarida qoldiq qiymat bahosi va 95 foiz ishonch intervallari[17]**

An'anaviy fond indekslari bo'yicha  $DJIA_{RS5\%}$  da qoldiq qiymat bahosi intervali 2 dan kam qiymatni ham o'z ichiga olgan, ya'ni quyi chegara qiymati 1,9273ni tashkil etmoqda (2-jadval). Bu holatda qoldiq qiymat bahosi 2 dan yuqori degan gipoteza rad etilmoqda. Qolgan barcha an'anaviy fond indekslarida barcha modellar va qismlarda qoldiq qiymat bahosi 2 dan yuqori chiqqan. Bu esa qoldiq qiymat bahosi 2 dan yuqori degan gipotezani tasdiqlaydi. Qoldiq qiymat bahosi 3 ga teng bo'lishi mumkin degan ehtimollikni  $DJIA_{Hill10\%}$ ,  $FTSE_{Hill10\%}$  va  $SP500_{Hill10\%}$ larda inkor etiladi. Qolgan modellar va qismlarda yuqori chegara bahosi 3dan baland bo'lganligi sababli inkor etilmaydi. Qoldiq qiymat bahosi 4 ga teng bo'lish ehtimolligi faqat  $JCI_{RS5\%}$ da kuzatiladi va qolgan barcha modellar qismlarda yuqori chegara 4 dan pastligi uchun rad etiladi.

Islom fond indekslari bo'yicha barcha modellar va qismlarda qoldiq qiymat ko'rsatkichi 2 dan yuqori chiqqan (3-jadval). Bu holatda barcha islom fond indekslarining quyi chegarasi 2 dan yuqoriligi kuzatilgan. Qoldiq qiymat bahosi 3 ga teng bo'lishi mumkin degan ehtimollikni  $DJI_{Ism}_{Hill10\%}$ ,  $FTSEI_{Ism}_{Hill10\%}$  va  $SP500I_{Ism}_{Hill10\%}$ larda inkor etiladi. Qolgan modellar va qismlarda yuqori chegara bahosi 3dan baland bo'lganligi sababli inkor etilmaydi. Qoldiq qiymat bahosi 4 ga teng bo'lish ehtimolligi faqat  $JII_{RS5\%}$ da kuzatiladi va qolgan barcha modellar qismlarda yuqori chegara 4 dan pastligi uchun rad etiladi.

2-3-jadvallarda keltirilgan natijalar bo'yicha an'anaviy va islom fond indekslari o'zaro qiyosan taqqoslanadigan bo'lsa islomiy fond indekslarining ko'rsatkichlari an'anaviysiga qaraganda yuqoriroq ekanligini kuzatish mumkin.  $DJIA_{Hill10\%}$  va  $SP500_{Hill10\%}$ da muqobili bo'lgan islom fond indekslarigan biroz yuqoriroq qayr etilgan. Bu qiyoslashlarning 16 tadan 2 tasini tashkil etadi. Ammo mazkur farq darajasi juda past bo'lib asosiy gipotezani tasdiqlanishi uchun jiddiy ta'sir etmaydi. Bundan tashqari ahamiyati yuqoriroq hisoblanuvchi RS usulidan islom fond indekslari natijalari to'laqonli yuqoriroq bo'lganligi sababli xulosa qilish uchun yetarli bo'ladi. Baholash modellariga ko'ra qoldiq qiymat qanchalik yuqori bo'lsa, tashqi shok omillarga shunchalik bardoshligi ifodalananadi.

## 2-jadval

### An'anaviy fond indekslarining qoldiq qiymat baholari[17]

	Truncation	Tail RS	$s.e._{RS} = \sqrt{\frac{2}{n} \hat{\xi}_{R\bar{x}}}$		Tail Hill	$s.e._{Hill} = \sqrt{\frac{1}{n} \hat{\xi}_{Hil\bar{x}}}$	
DJIA	10%	2.5886	0.2306	(2.1366, 3.0406)	2.5648	0.1616	(2.2475, 2.8821)
	5%	2.5592	0.3224	(1.9273, 3.1912)	2.7299	0.2432	(2.2514, 3.2085)
FTSE	10%	2.7641	0.2472	(2.2796, 3.2487)	2.5014	0.1582	(2.1907, 2.812)
	5%	2.8372	0.3589	(2.1338, 3.5405)	2.9422	0.2632	(2.4243, 3.46)
SP500	10%	2.7201	0.2423	(2.2451, 3.195)	2.533	0.1596	(2.2197, 2.8464)
	5%	2.8403	0.3578	(2.1389, 3.5417)	2.7454	0.2446	(2.2641, 3.2267)
JCI	10%	3.0689	0.2761	(2.5276, 3.6101)	2.7345	0.174	(2.3928, 3.0762)
	5%	3.3649	0.4291	(2.5239, 4.2059)	2.9435	0.2654	(2.4212, 3.4658)

## 3-jadval

### Islom fond indekslarining qoldiq qiymat baholari[17]

	Truncation	Tail RS	$s.e._{RS} = \sqrt{\frac{2}{n} \hat{\xi}_{R\bar{x}}}$		Tail Hill	$s.e._{Hill} = \sqrt{\frac{1}{n} \hat{\xi}_{Hil\bar{x}}}$	
DJIslm	10%	2.8024	0.2237	(2.3641, 3.2408)	2.4877	0.1404	(2.2121, 2.7633)
	5%	3.0216	0.341	(2.3532, 3.69)	2.9568	0.236	(2.4928, 3.4207)
FTSEIslm	10%	2.8786	0.2575	(2.3739, 3.3832)	2.5862	0.1636	(2.265, 2.9074)
	5%	3.0255	0.3827	(2.2754, 3.7756)	3.1708	0.2836	(2.6127, 3.7288)
SP500Islm	10%	2.7954	0.249	(2.3073, 3.2835)	2.5121	0.1582	(2.2013, 2.8229)
	5%	2.9554	0.3723	(2.2256, 3.6852)	2.9533	0.2631	(2.4356, 3.471)
JII	10%	3.2004	0.288	(2.6359, 3.7648)	2.8359	0.1804	(2.4815, 3.1903)
	5%	3.4818	0.444	(2.6116, 4.352)	2.9826	0.2689	(2.4534, 3.5118)

#### 4-jadval

#### An'anaviy fond indekslarida musbat va manfiy o'zgarishlar uchun qoldiq qiymat baholari[17]


	N	Truncation	n	Tail RS	$s.e_{RS} = \sqrt{\frac{2}{n}} \tilde{\xi}_{R\bar{E}}$		Tail Hill	$s.e_{Hill} = \sqrt{\frac{1}{n}} \tilde{\xi}_{Hil\bar{E}}$	
DJIA (+)	1368	10%	136	2.7941	0.3142	(1.9752, 3.2069)	2.6556	0.2277	(2.2077, 3.1036)
		5%	68	2.6556	0.4231	(1.6377, 3.2962)	2.7235	0.3303	(2.0714, 3.3755)
DJIA (-)	1153	10%	115	2.518	0.343	(1.931, 3.277)	2.5177	0.2348	(2.0556, 2.9799)
		5%	57	2.794	0.49	(1.657, 3.579)	2.7941	0.3701	(2.0624, 3.5258)
FTSE (+)	1362	10%	136	3.042	0.3617	(2.2738, 3.6917)	2.7216	0.2334	(2.2625, 3.1807)
		5%	68	2.7216	0.5334	(2.0648, 4.1558)	3.1486	0.3818	(2.3947, 3.9024)
FTSE (-)	1126	10%	112	2.388	0.348	(1.921, 3.284)	2.3882	0.2257	(1.9439, 2.8324)
		5%	56	3.042	0.498	(1.659, 3.61)	3.042	0.4065	(2.2382, 3.8459)
SP500 (+)	1363	10%	136	3.0558	0.3218	(2.0231, 3.2847)	2.6815	0.2299	(2.2291, 3.1338)
		5%	68	2.6815	0.4494	(1.7394, 3.5009)	2.7996	0.3395	(2.1293, 3.4699)
SP500 (-)	1159	10%	115	2.569	0.372	(2.089, 3.546)	2.5694	0.2396	(2.0977, 3.041)
		5%	57	3.056	0.562	(1.899, 4.102)	3.0558	0.4048	(2.2556, 3.8561)
JCI (+)	1331	10%	133	3.2323	0.3843	(2.3808, 3.8873)	3.0767	0.2668	(2.5518, 3.6015)
		5%	68	3.0767	0.5559	(2.104, 4.2832)	3.3119	0.4077	(2.5068, 4.1169)
JCI (-)	1130	10%	113	2.691	0.404	(2.244, 3.827)	2.6908	0.2531	(2.1925, 3.1891)
		5%	56	3.232	0.673	(2.241, 4.879)	3.2323	0.4319	(2.3782, 4.0864)

## 5-jadval


### **Islom fond indekslarida musbat va manfiy o‘zgarishlar uchun qoldiq qiymat baholari[17]**

	N	Truncation	n	Tail RS	$s.e._{RS} = \sqrt{\frac{2}{n}} \hat{\xi}_{R\bar{x}}$		Tail Hill	$s.e._{Hill} = \sqrt{\frac{1}{n}} \hat{\xi}_{Hil\bar{x}}$	
DJIslm (+)	166 2	10%	16 6	2.7235	0.3147	(2.2502, 3.4837)	2.6398	0.2049	(2.237, 3.0426)
		5%	83	2.6398	0.4793	(2.148, 4.0267)	3.0308	0.3327	(2.3748, 3.6867)
DJIslm (-)	142 7	10%	14 2	3.031	0.328	(2.122, 3.409)	2.4283	0.2038	(2.0275, 2.8291)
		5%	71	2.428	0.49	(1.959, 3.88)	2.9055	0.3448	(2.225, 3.5861)
FTSEIslm (+)	134 4	10%	13 4	3.1486	0.383	(2.3846, 3.8861)	2.9604	0.2557	(2.4573, 3.4635)
		5%	67	2.9604	0.5784	(2.2141, 4.4814)	3.2355	0.3953	(2.455, 4.016)
FTSEIslm (-)	115 1	10%	11 5	3.235	0.353	(1.985, 3.369)	2.4623	0.2296	(2.0103, 2.9143)
		5%	57	2.462	0.513	(1.732, 3.741)	3.0891	0.4092	(2.2801, 3.898)
SP500Islm (+)	136 8	10%	13 6	2.7996	0.3298	(2.0731, 3.3659)	2.7283	0.2339	(2.2681, 3.1885)
		5%	68	2.7283	0.4658	(1.803, 3.6288)	2.8687	0.3479	(2.1819, 3.5555)
SP500Islm (-)	115 2	10%	11 5	2.869	0.386	(2.168, 3.68)	2.4633	0.2297	(2.0111, 2.9155)
		5%	57	2.463	0.59	(1.995, 4.309)	2.904	0.3846	(2.1436, 3.6645)
JII (+)	126 6	10%	12 6	3.3119	0.4035	(2.412, 3.9937)	3.0002	0.2673	(2.4743, 3.5261)
		5%	63	3.0002	0.5768	(2.1067, 4.3676)	3.1834	0.4011	(2.3911, 3.9757)
JII (-)	119 4	10%	11 9	3.183	0.408	(2.35, 3.952)	2.794	0.2561	(2.2899, 3.2981)
		5%	59	2.794	0.675	(2.343, 4.989)	2.9341	0.382	(2.1791, 3.6892)

A'anaviy va islom fond indekslarida musbat va manfiy o'zgarishlar uchun qoldiq qiymat baholari bo'yicha alohida taqqoslashda ham deyarli yuqoridagi holat kuzatilib xulosa yana o'z tasdig'ini topdi. Bunda Hills baholash usulida JCI musbat o'zgarishda ajratib olingan 5% va 10 % qismlarida va manfiy o'zgarishda 5% qismda JIIga nisbastan, SP500 manfiy o'zgarishda 5% va 10 % qismlarida SP500Ishmga nisbatan hamda DJIA manfiy o'zgarishda 10% qismda DJIshmga nisbatan balandroq qayd etilgan. Qolgan 26 ta qiyoslash holatida islom fond indekslari ustunlikni kasb etgan.



**7-rasm. Tanlanmadagi ko'payib boruvchi kuzatuvalar soni bo'yicha qoldiq qiymat bahosi va 95 foiz ishonch intervallari (DJIA)[17]**




**8-rasm. Tanlanmadagi ko'payib boruvchi kuzatuvalar soni bo'yicha qoldiq qiymat bahosi va 95 foiz ishonch intervallari (FTSE)[17]**


Hills baholash modeli va OLS log-log regression medeli asosida tanlangan davrdagi qoldiq qiymatlar baholanishining natijalarga ko'ra islom fond

indekslarining an'anaviy fond indekslariga nisbatan tashqi shok omillarga bardoshliroq ekanligi aniqlandi.

4-14-rasmlarda barcha fond indekslari bo'yicha tanlanmadagi ko'payib boruvchi kuzatuvlar soni bo'yicha qoldiq qiymat bahosi va 95 foiz ishonch intervallari tasvirlangan bo'lib ko'payib borish vaqtli qatorlar ketma-ketligi bo'yicha tartiblangan. Dastlabki qiymat tanlanmadan davr bo'yicha eng birinchi 100 ta kuzatuv nuqtalari bo'yicha hisoblangan. Qolgan ko'rsatkichlar mos ravishda 1 tadan qo'shib boradi.




**9-rasm. Tanlanmadagi ko'payib boruvchi kuzatuvlar soni bo'yicha qoldiq qiymat bahosi va 95 foiz ishonch intervallari (SP500)[17]**




**10-rasm. Tanlanmadagi ko'payib boruvchi kuzatuvlar soni bo'yicha qoldiq qiymat bahosi va 95 foiz ishonch intervallari (JCI)[17]**

Yuqorida sharhlangan va tadqiqotimiz tanlanmasining qamroviga kiruvchi ta'sir etuvchi shok omillarning birichi va ikkinchisi 7-14-rasmlarda yaqqol ifodasini topgan. Rasmlardan ko'rish mumkinki, 2015-yildagi shok omil statistik jihatdan deyarli barcha indekslarga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Ammo 2020-yilda


boshlangan pandemiyaning ta'siri jiddiy hisoblanib barcha fond indekslariga keskin ta'sini namoyon etgan.




**11-rasm. Tanlanmadagi ko‘payib boruvchi kuzatuvlar soni bo‘yicha qoldiq qiymat bahosi va 95 foiz ishonch intervallari (DJIslm)[17]**



**12-rasm. Tanlanmadagi ko‘payib boruvchi kuzatuvlar soni bo‘yicha qoldiq qiymat bahosi va 95 foiz ishonch intervallari (FTSEIsm)[17]**



**13-rasm. Tanlanmadagi ko‘payib boruvchi kuzatuvlar soni bo‘yicha qoldiq qiymat bahosi va 95 foiz ishonch intervallari (SP500Ishm)[17]**



**14-rasm. Tanlanmadagi ko‘payib boruvchi kuzatuvlar soni bo‘yicha qoldiq qiymat bahosi va 95 foiz ishonch intervallari (JII)[17]**

Tanlanmadagi ko‘payib boruvchi kuzatuvlar soni bo‘yicha qoldiq qiymat bahosi va 95 foiz ishonch intervallari bo‘yicha tahlillar an’anaviy fond indekslar uchun pandemiya ta’siri eng yuqori darajada bo‘lib pandemiyadan keying davr qoldiq qiymatning yuqori chegarasi pandemiyadan avvalgi davrning quyi chegarasidan ham sezilarli darajada pastlab ketgan. Islom fond indekslarida esa mazkul holat nisbatan kamroq tebranish bilan kechgan. Ya’ni davrlarning yuqori va quyi chegara intervallari tutashlikka ega yoki keskin tafovutlanmaydi. Bu pandemiya davrida islom fond indekslari nisbatan kamroq riskka ega bo‘lganligini ifodalaydi. Boshqacha aytganda qo‘yilgan gipoteza yana bir bor o‘z tasdig‘ini topganligini bildiradi.

## XULOSA

Amalga oshirilgan tadqiqotdan quyidagi ayrim xulosalarini keltirish mumkin:  
islom fond indekslari an'anaviy fond indekslariga qaraganda tashqi shok omillarga bardoshliroq. Bu global fond indekslarida ham mintaqaviy fond indekslarida ham namoyon bo'ladi;

mamlakat fond bozorini rivojlantirishda va raqobatni qo'llab-quvvatlashda islom kapital bozori ekotizimini shakllantirish hamda unda islom fond indekslari instrumetnlari faoliyatini yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi;

O'zbekistonda islom moliysi instrumenetlariga talabni va fond indekslarining minoritar investorlar uchun qulayligini inobatga olgan holda risk darajasi past bo'lib kelayotgan islom fond indekslarini mamlakatimizda tadbiq qilish maqsadga muvofiq.

## FOYDALANILGA ADABIYOTLAR

1. Alam, N., Arshad, S., & Rizvi, S. A. R. (2016). Do Islamic stock indices perform better than conventional counterparts? An empirical investigation of sectoral efficiency. *Review of Financial Economics*, 31, 108–114. <https://doi.org/10.1016/j.rfe.2016.06.003>
2. Haddad, H. B., Mezghani, I., & Al Dohaiman, M. (2020). Common shocks, common transmission mechanisms and time-varying connectedness among Dow Jones Islamic stock market indices and global risk factors. *Economic Systems*, 44(2), 100760. <https://doi.org/10.1016/j.ecosys.2020.100760>
3. Salisu, A. A., & Shaik, M. (2022). Islamic Stock indices and COVID-19 pandemic. *International Review of Economics & Finance*, 80, 282-293.
4. Cowell, F.A., Flachaire, E., 2007. Income distribution and inequality measurement: the problem of extreme values. *Journal of Econometrics* 141, 1044–1072.
5. Davidson, R., Flachaire, E., 2007. Asymptotic and bootstrap inference for inequality and poverty measures. *Journal of Econometrics* 141, 141–166.
6. Ibragimov, R., 2009. Heavy-tailed densities. In: Durlauf, S.N., Blume, L.E. (Eds.), *The New Palgrave Dictionary of Economics Online*. Palgrave Macmillan. [http://www.dictionaryofeconomics.com/article?id=pde2008\\_H000191](http://www.dictionaryofeconomics.com/article?id=pde2008_H000191)
7. Embrechts, P., Klüppelberg, C., Mikosch, T., 1997. *Modelling Extremal Events for Insurance and Finance*. Springer, New York.
8. Beirlant, J., Goegebeur, Y., Teugels, J., Segers, J., 2004. *Statistics of Extremes*, Wiley Series in Probability and Statistics. John Wiley & Sons Ltd., Chichester, Theory and applications, With contributions from Daniel De Waal and Chris Ferro.
9. Huisman, R., Koedijk, K.G., Kool, C.J.M., Palm, F., 2001. Tail-index estimates in small samples. *Journal of Business and Economic Statistics* 19, 208–216.
10. Levy, M., 2003. Are rich people smarter? *Journal of Economic Theory* 110, 42–64.

11. Levy, M., Levy, H., 2003. Investment talent and the Pareto wealth distribution: theoretical and experimental analysis. *Review of Economics and Statistics* 85, 709–725.
12. Helpman, E., Melitz, M.J., Yeaple, S.R., 2004. Export versus FDI with heterogeneous firms. *American Economic Review* 94, 300–316.
13. Gabaix, X., Ibragimov, R., 2011. Rank-1/2: a simple way to improve the OLS estimation of tail exponents. *Journal of Business and Economic Statistics* 29, 24–39, [http://www.economics.harvard.edu/faculty/ibragimov/files/Gabaix\\_Ibragim%ovAdditionalResults.pdf](http://www.economics.harvard.edu/faculty/ibragimov/files/Gabaix_Ibragim%ovAdditionalResults.pdf)
14. Ibragimov, M., Ibragimov, R., & Kattuman, P. (2013). Emerging markets and heavy tails. *Journal of Banking & Finance*, 37(7), 2546-2559.
15. [www.spglobal.com](http://www.spglobal.com)
16. [www.investing.com](http://www.investing.com)
17. Muallif ishlanmasi.